

ILK O'RТА ASRLAR.

*Guliston davlat pedagogika instituti Dotsenti tarix fanlari bo'yicha Falsafa
doktori (PHD)
Mirzaliyev U*

*Tarix yo'nalishi 33\24 guruh talabasi
Noryigitova Sevinch.*

O'rta asrlar tarix fanida jahon tarixining qadimgi dunyo tarixi bilan yangi tarix oralig'idagi davrni ifodalash uchun qabul qilingan atama o'rta asr tushunchasi XV-XVI asr italyan tarixchilari asarlarida vujudga kelgan, fanda XVIII asrda qaror topgan. Dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlar tarixiga nisbatan ishlatilgan. O'rta asrlar V asrdan – XV asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Milodiy 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulagandan so'ng o'rta asrlar boshlangan. O'rta asrlar ikkiga bo'linadi: Ilk o'rta asrlar davri V – XI asrlarni o'z ichiga oladi, Rivojlangan o'rta asrlar esa XI – XV asrlarni o'z ichiga oladi. Tarix faniga o'rta asrlar tushunchasi uyg'onish davri mutaffakirlari tomonidan berilgan bo'lib, madaniyat yuksak etgan antik davr bilan uyg'onish davri o'rtasidagi davrga nisbatan ishlatilgan. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida muhim voqealar bo'lib o'tdi. Bu yerda shahar hunarmanchiligi keng tarmoq otib rivojlanishda davom etdi. Samarqand, Buxoro, Poykent va boshqa shaharlar yirik savdo-sotiq markazlari sifatida o'rnini saqlab qoldi. Hatto Shosh-Iloq vohasidagi shaharlar juda jadal rivojlanish yo'liga tushib qoldi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya, to'qimachilik sohalari yuksak professional darjada rivojlanib ular ko'p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarar edi. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo haqida gapiradigan bo'lsak, to'qimachilik hunarmandchilikning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, ipak mahsulolartini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. VII asrda O'rta Osiyo

ijtimoiy va siyosiy hayotida yer berilgan feodallashtirish jarayonining rivojlanishi xoqonlikda ichki qarama-qarshiliklarning chuqurlashishiga olib keldi. Jamiatning ijtimoiy tarkibida o‘zgarishlar hatto yer egalari bo‘lgan dehqonlar, badavlat savdogar va hunarmandlar tabaqasi paydo bo‘ldi. Yerlar o‘z navbatida shaharlarni vujudga kelishiga ko‘p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ta’sir o‘tkazdi. Malumki, G‘arb bilan Sharqni bog‘lovchi muhim savdo yo‘li bilan Buyuk Ipak yo‘l(G‘arbiy meridian yo‘l)ining qadimgi Farg‘onadan o‘tgan yo‘nalishi ilk o‘rta asrlarga kelib, O‘rta Osiyo Shimoliy hududlarining ichki rayonlariga kirib bordi. Savdo-sotiqni pul asosida rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi, tanga pul zarb qilishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, pul zarbxonalarining yangi markazlari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyo borasida Toxariston, So‘g‘d, Usturshona va Shosh tangalari keng muomalada bo‘ldi. Ilk o‘rta asrlarda har bir shahar o‘zining markazlari bilan mashhur bo‘lgan. Masalan, VI – VII asrlarda shakllangan Buxoroning “Zandanichi” ipak mahsulotlariga bo‘lgan talab katta bo‘lgan hamda, Samarqand esa o‘zining “toq qizil baxmali” bilan mashhur bo‘lgan.

Ilk o‘rta asrlar davrida O‘rta Osiyo tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’daniy jarayonlar bo‘lib o‘tdi va keyingi tarixiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Albatta feodal yer egaligi munosabatlari dunyoning turli xalqlari va mamlakatlarida bir vaqtda sodir bo‘lmagan. Ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo tarixida V – IX asrlarni o‘z ichiga olib, muhim tarixiy voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm haqida gapiradigan bo‘lsak boy qadimiy tarixga ega. Xorazmdan birinchi bo‘lib ajralib chiqqan davlat Qang‘ davlati hisoblanadi. III-asrda esa Xorazmning poytaxti Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’ a tumanida joylashgan Tuproqqał’ a hududi bo‘lgan, unda Afrig‘iyilar sulolasini IV – X asrlarda hukumronlik qilgan. Qo‘lida burgut qo‘ndirilgan tojdor hukmdori surati Tuproqqał’ adan topilgan. Aksincha lochin qo‘ndirilgan hukmdor kishi surati Anqaqal’ adan topib o‘rganilgan. Xorazm hududidan ilk o‘rta asrlar davriga oid shahar va mustahkamlangan qo‘rg‘oncha qoldiqlari topib o‘rganilgan. Fir saroyini, Burgutqał’ a, Teshikqał’ a, Kuyukqał’ a, Mirdakhon va boshqalar



o'rganilgan. V – VI asrlarda qurilgan Kuyukqal'a 41 ga maydonni egallagan. Uning ichki qismida 2ta qasr bo'lganligi aniqlangan. Milodning IV – V asrlari O'rta Osiyo qadimgi tarixinining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Xalqaro savdo aloqalarida so'g'diyilar katta ro'l o'ynagan va ularning mavqeyi boshqa savdogarlarga qaraganda balandroq bo'lgan so'g'diyilar vositachilik qilgan. So'g'dning Xitoy bilan aloqasi uzlusiz davom etgan. Ayniqsa bu jarayon Tan sulolasiga davrida (618-907) yanada jonlandi. Birgina 627-647 yillarda So'g'd konfederatsiyasi mulkidan Xitoyga 9ta elchilik yuborgan. Bu ikkinchi tomondan so'g'diyarning turkiylar bilan munosabatiga ham yo'l ochgan. III asrdan boshlab Kushon podsholigi tanazzulgan yuz tutdi. Asta-sekin shaharlar huvillab qoldi. Kuchsizlanib qolgan Kushon podsholigi ko'chmanchi qabilalar hujumiga uchraydi. Xiyoniylar davlati IV asr o'rtalarida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Grumbat boshchiligidagi xiyon qabilalarining hujumi boshlandi. 353-yilda ular So'g'dga bostirib kiradilar. Xiyoniylar Sosoniylar bilan to'qnash kelib ularni yengadilar. IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda 120 yildan oshiqroq hukumronlik qilgan kuchli xiyoniylar hukumronligi o'rnatildi. Sirdaryo bo'yalaridan to Amudaryo havzasigacha chozilgan keng maydonda xiyoniylarning kuchli davlati qaror topadi.

Kidariylar davlati. V asrning 20-yillarida Sirdaryo va Orol bo'yları oraqli Xorazm va Amudaryo havzasiga Kidar boshchiligidagi Kushonlarning avlodlaridan bo'lgan toxarlar kirib keldi. Ular kidariylar nomi bilan ham tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo hamda g'arbiy va janubiy So'g'd yerlarini ishg'ol qilib, xiyoniylar davlatining janubiy qismida o'z hukumronligini o'rnatdi. Balx shahri Kidariylar davlatining poytaxtiga aylantirildi. V asrning 60-yillariga qadar ular sosoniy shohlarining sharqdagi asosiy dushmani bo'lib qolgan. Kidariylar bilan sosoniylar davlatlari o'rtasidagi chegara Talikon yaqinida bo'lgan. 456-yilda sosoniylardan qaqshatqich zARBAGA uchragan kidariylar Eftallar bilan to'qnash kelib O'rta Osiyoni tark etadi va Shimoliy Hindistonda o'rnashib, u yerlarda 75 yil hukumronlik qildi.

Eftallar davlati. V asrning o‘rtalariga kelib eftallar deb atalgan yirik qabilalar birlashmasi O‘rta Osiyoga bostirib kiradi. “Eftal” degan nom ilk bor “xetal” shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida “Eftalon” deb yuritilgan qabila nomidan olingan. Muarrixlar eftaliylarni asli sak, massaget va xunn qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Qabila oqsoqoli vaxshunvar qabila boshliq eftaliylar davlati tashkil topadi. Eftallar davlatiga O‘rta Osiyodan tashqari Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonning yerlari kirgan. Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovvuzdan xavfsiragan sosoniylar shohi Pero‘z (459-484) ularga qarshi uch marta muvoffaqiyatsiz yurish qiladi. Uning vorislari Kubod (488-531) va Anushervon (531-579) hukmronlik qilgan davrlarda eftallar bilan munosabatlar yaxshilandi. Eron uzoq vaqt davomida xiroj tolab turgan.

563-567-yillari janubda Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan zARBAGA uchragan Eftallar davlati barbod bo‘ladi. Natijada Eftallar davlati Eron sosoniylari va Turk xoqonligi o‘rtasida o‘zaro bo‘linib Amudaryoning janubiy qirg‘oqlarigacha bo‘lgan viloyatlar Eron, uning sohillari bo‘ylab Kaspiy dengizigacha bo‘ylab chozilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o‘tadi.

Eftallar davrida yerga egalik munosabatlari shakllanib bordi. Ilgarilari harbiy yurishlardan katta daromad qilib turgan zodagonlar yer ularni doimo taminlash manbai bo‘lishini anglab olishadi. Yerlarning asosiy qismi qishloq jamolariga tegishli bo‘lgan. Dehqonlar va ibodatxonalarga tegishli yerlar ham bo‘lgan. Ibodatxonaga tegishli yerlar vag‘nze deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi qabila va unug‘ jamoalari va ularning oqsoqollari – beylar tasarrufida edi. Eftaliylarning etnik tarkibi, davlati to‘g‘risida Rim va Vizantiya tarixchilaridan Marselin (IV asr), Xitoy solnomalarida Beyshi (VI asr), Favst Buzand (IV asr), Arman tarixchisi Lazar Parbskey (V asr), Prokoiy Kesariyskiy, Feafan Vizantiyskiy (VI asr) larda ma’lumotlar keltirilgan. Eftaliylar turli manbalarda turlicha nomlangan: Xitoy manbalarida “i-da”, “ye-da”, Armanlarda “ideal”, “xeptal”, Arablarda “haytal”, Suriya va lotin manbalarida “eptalit”, “eftalat”,



“abdal” deb yuritilgan. Eftaliylar hukumdori Vahshunvar Eftalon 457-yilda o‘ziga bo‘ysundirgan yerlar Chagoniyon (hozirgi Surxon yerkari), Tohariston, Badaxshon shular kabitidir. Eftaliylar o‘t va quyoshga sig‘inishgan, O‘rta Osiyodagilar esa – buddaviylik, moneylik, nasroniylik, zardushtiylikka e’tiqod qilishgan. Eftaliylar Hindistonga bostirib kirish natijasida vujudga kelgan. Shimoliy Hindiston, Pokiston va janubiy-sharqiy Afg‘oniston hududidan iborat bo‘lgan. Hindistondagi Eftaliylar davlati milodiy V asr oxxiri – VI asrning 1-yarmida, To‘ramon va uning vorisi Mixirakula davrida kuch-qudratga to‘lib, ravnaq topgan. VI asr o‘rtalariga kelib tanazzulga yuz tutgan.

So‘g‘ tilidagi manbalar asosan IV-X asrlarga oid bo‘lib turli mazmundagi huquqiy hujjatlar (ahdnoma, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar) hukmdorlari (So‘g‘d, hosh, Turk va Farg‘ona hukmdorlari) o‘rtasidagi yozishmalar, xo‘jalikning kundalik faoliyatga oid hujjatlar, masalan Xarajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So‘g‘diyonaning o‘zidan (Mug‘qal’adan), Samarqanddan (Afrosiyobdan), Qirg‘iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan. Bular orasida Mug‘qal’a xarobalaridan 1932-yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar 1932-yilning bahorida Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zahmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog‘ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari Polatoniy tomonidan ochilgan. Hujjatlar jami 79ta bo‘lib bulardan 74tasi qadimgi so‘g‘d, 1 donasi arab, 3 tasi Xitoy va yana biri Turk tilidandir. Ular har xil materialga, charmga, taxtaga o‘yib yozilgan.

Ilk o‘rta asrlarda – O‘rta Osiyoda so‘g‘, xorazm, eftalit, turk bitiklari paydo bo‘ldi. Mazkur yozuvlar tarixiy manba bo‘lishi bilan birga noyob ilmiy manba hisoblanadi.

Aholining diniy e’tiqodi turlicha bo‘lgan: Tohariston va Sharqiy Turkiston aholisi buddizm, So‘g‘ va Xorazm aholisi otashparastlik diniga e’tiqod qilganlar. Shu davrda O‘rta Osiyoga moneylik va nestarian-xristian dini ham tarqala boshlagan. Urgut yaqinida topilgan xristian dini ibodatxonasi shu o‘tmishni tasdiqlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005).
2. Annayev T, Tilovov B, Xudoyerberdiyev Sh "Boysun arxeologik yodgorliklari" – Toshkent 1999.
3. Buryakov. Yu.F "Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari" – Toshkent: Fan 1978.
4. Isomiddinov M.H "Sopolga bitilgan tarix" – Toshkent 1998.
5. Farhod Sultonov, Farux Boboyev "Ilk o'rta asrlar tarixi"
6. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi" – T.Sharq 2000.
7. "Literaturnaya gazeta" 1988 yil 24- fevral Fyodor Burlatskiy "Brynov i kruphenu ottepli"